

AYOL BAXTI – JAMIYAT BAXTI

Mirshodjon Azimov

BuxDPI “Pedagogika va ijtimoiy fanlar”
fakulteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya

Yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo ‘llab-quvvatlash va ularni og ‘irini yengil qilish maqsadida olib borilayotgan ishlar. Xotin-qizlarni qiynayotgan muammolar va ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar.

Kalit so ‘zlar: Ayol, xotin-qizlar, xotin-qizlar huquqi, gender tenglik, xotin-qizlarni ilmli qilish, ayollarni ardoqlash.

Yer yuzida ongli hayot paydo bo‘libdiki, odamzot muqaddas ona siymosini, ayol zotini ulug‘lab sharaflab keladi. Go‘zallik va nafosat, mehr-u muhabbat vafo va nazokatning ramzi bo‘lgan, o‘zining muhabbati bilan oilani oila qiladigan , unga tarovat bag‘ishlaydigan, o‘z farzandlariga Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini singdiradigan, Yaratganning tengsiz mo‘jizasi bu shak-shubhasiz ayol. Ayol borki, olam munavvar, ayol borki, hayot go‘zal va maftunkor. Ularning fazilatlarini har qancha hurmat qilib, e’zozlasak shuncha oz. G‘arb allomalaridan biri jamiyatning madaniy darajasi uning ayoliga bo‘lgan munosabati bilan belgilanishini ta’kidlab o‘tgan. Shu sababli davlatimiz mustaqillik yillarida yurtimizda ayollarni ulug‘lash, ularni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatdagi nufuzini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ularning iste’dod va imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Ayni paytda yurtimiz xotin-qizlari, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish bilan birga davlat qurilishida ishtirok etish, tadbirkorlik va iqtisodiy soha taraqqiyotiga hissa qo‘shish, ilm-fanni rivojlantirish jarayonlarida o‘z iqtidorini namoyon etmoqda. Ayol zotini e’zozlash el-yurtimiz uchun ezgu qadriyat bo‘lib kelgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatimiz hayotida tutgan yuksak o‘rni va mavqeining yanada ortganligi, ularning barcha islohotlarda faol ishtirok etishlari bizni har lahzada quvontiradi. Davlatimiz mustaqilligining ilk kunlarida 1991-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Xotin-qizlarining Termiz konferensiyasida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil topdi va jamoat birlashmasi O‘zbekiston xotin-qizlarining ixtiyoriy asosda tashkil etilgan, o‘zini-o‘zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek “ Ayollarimizning turmush sharoitini yengil qilish borasida biz uchun mayda narsaning o‘zi yo‘q va bo‘lmaydi ham. Ayolning kayfiyati yaxshi bo‘lsa, ayol hayotdan rozi bo‘lsa,oila hayotdan rozi bo‘ladi.Agar oila rozi bo‘lsa, mahalla butun el-yurt rozi bo‘ladi ”.(1)

Hammamizga bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma’naviy darajasini, avvalo, shu yurt ayollarining ma’naviy saviyasi belgilaydi. Shu sababli buyuk siymolarning hayotiga nazar tashlaydigan bo ‘lsak, Alisher Navoiy, Imom al Buxoriy , Zahiriddin Muhammad Bobur , Amir Temur kabi shaxslarning yetuk shaxs sifatida kamol topishida mehribon onalari, dono rafiqalari g‘oyat muhim rol o‘ynagani ayon bo ‘ladi. O ‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek “...Oilani oila qiladigan , umuman hayotimizga ma’no-mazmun bag ‘ishlaydigan, bizni odamiylikka, mardlikka va olivjanob, haqiqiy inson bo ‘lishga chorlaydigan ayolning mehr-muhabbat va zahmatini hech narsa bilan o’lchab bo’lmaydi”. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minalash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayolni hurmat qilsak, millatni hurmat qilgan bo‘lamiz. Faqat bayram kunlari emas,bir yilda 365 kun bo‘lsa, shu kunlar davomida ularni hurmat qilib, e’zozlamoq kerak. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “ Yangi O‘zbekiston strategiyasi ” asarlarida yozishlari bo ‘yicha O ‘zbekiston Respublikasining gender siyosati quyidagilarga qaratilgan;

- Ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratish;
- Ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta’minalash;
- OAVda gender muammolarini keng yoritilishini ta’minalash.

Muhtaram yurtboshimizning aytishlari bo‘yicha “ Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi”. Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli demokratik islohotlar natijasida yurtimiz ayollarining siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki tobora kuchayib bormoqda . O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliiy parlament o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Hozirgi vaqtida davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 380 nafardan ziyod xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlar o‘rtasida fan doktorlari, professorlar va akademiklar, “ Xalq o‘qituvchisi “, “Xalq shoiri “, “Xalq artisti ” unvonlariga sazovor bo ‘lgan xotin-qizlarning bor ekanligi bizning faxrimiz. Barchamizga ayonki, milliy parlamentimiz tarixida birinchi marta ayol kishi – Tanzila Kamolovna Norboyeva Senat Raisi lavozimiga saylandi. Bu bilan men aytmoqchimanki, yurtimizda ayol rahbarlar – vazirlar, hokimlar, ishlab chiqarish birlashmalari , bank va kompaniyalar raislari, huquq tartibot idoralarida Qurolli Kuchlarimiz tarkibida opa-singillarimiz soni ortib bormoqda. Bugungi kun “ Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli , ma’rifatli va salohiyatl qilish “ degan aqidani hayotga tatbiq etishni taqazo etmoqda.(3) Har bir mamlakatning rivoji, o ‘sha davlatdagi

fuqarolarning jinsidan qat'i nazar ta'lim olish darajasiga bog'liq. Yon atrofimizda qizlarga nisbatan "o'qib olim bo 'lasanmi?" "o'qib shahar olib berardingmi?" qabilidagi gaplarni tez-tez uchratib turamiz. Bu borada xotin – qizlarni qo 'llab – quvvatlash bo 'yicha tashkil etilgan respublika va hududiy jamg 'armalar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda xotin-qizlarimizni qiyaydigan ko 'plab muammolarning ildizi ular bilimlarining yetishmasligi,o 'z huquqlarini yetarli darajada talab qila olmasligiga borib taqaladi. Shu sababli qizlarning yoshligidan ta'limiga, bilim olishiga,kasb egallashiga e'tibor qaratishimiz lozim. O 'bekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O 'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo 'nalishi bo 'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to 'g 'risida"gi Farmonida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish,ularni oliy ta'limga yanada ko 'proq qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas. Xulosam shuki, yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda bag 'rikeng, mehnatkash, oqila, zukko, fahm-farosatli, mehribon onalarimiz, opa-singillarimiz davlatimizning rivojlanishiga munosib hissalarini qo 'shishlariga men ishonaman . Chunki ularning aqliligi, zukko va topqirligi xalqimizning zabardast insonlari kuchiga kuch, g 'ayratiga g 'ayrat, ilhomiga ilhom qo 'shishi, shubhasiz.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M "Yangi O'zbekiston strategiyasi";-Toshkent.:O 'zbekiston.2021.247-251bet
2. Taraqqiyot strategiyasi"markazi
3. 2017-2021- yillarga mo 'jallangan Harakatlar strategiyasi.
4. Karimov I.A "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish– eng oliy saodatdir".